

YANGI O‘ZBEKISTONDA SAYLOV QONUNCHILIGI TAKOMILLASHUVI

Buribekov Bobur Abdug‘affor o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devoni katta ofitseri

Demokratik jamiyat qurishning talablaridan biri – ko‘ppartiyaviylik asosida demokratik saylovlar o‘tkazishdir. Ko‘ppartiyaviylik bo‘lgandagina har bir fuqaro tom ma‘nodagi tanlash huquqiga ega bo‘ladi.

Ma‘lumki, mamlakatimiz mustaqilligining o‘tgan davrida ko‘ppartiyaviylikni tashkil etish va yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, mustaqil davlat taraqqiyotining birinchi bosqichi siyosiy partiyalar uchun shakllanish davri bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi bosqich ular uchun har tomonlama rivojlanish davri bo‘ldi, deya bemalol aytishimiz mumkin. Har ikkala bosqichda ham siyosiy partiyalar saylovlar jarayonida ishtirok etib, saylovdan saylovgacha bo‘lgan davrda o‘z tajribalarini ortirdilar, aholi bilan yaqindan muloqotga kirishib, tarafdorlari, jumladan, a‘zolari sonini yanada ko‘paytirishga erishdilar. Bu jarayonda, shubhasiz, siyosiy partiyalarning zamonaviy saylov texnologiyalarini qo‘llash tajribasi ham ortib bormoqda.

O‘zbekistonda bugungi kunda keng ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qodir bo‘lgan beshta siyosiy partiya faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bular quyidagilardir:

- O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi;
- “Adolat” sotsial – demokratik partiyasi;
- O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi;
- O‘zbekiston liberal – demokratik partiyasi;
- O‘zbekiston Ekologik partiyasi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev siyosiy partiyalarning bugungi kundagi faoliyati borasida to‘xtalib: “Partiyalar fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning g‘oyaviy, mafkuraviy ehtiyojlarini qondirishi shart. Agar partiyalar bunga erisholmasa, bu bo‘shliqni g‘araz niyatli kuchlar to‘ldirishga harakat qilishi shubhasiz” [1. – B. 559] deya yuqorida nomi keltirilgan siyosiy partiyalar oldiga zamon talabidan kelib chiqqan holda vazifani aniq va tushunarli qilib qo‘ydilar.

Fuqarolik jamiyati bilan saylovlarning aloqadorligi, asosan, shu bilan belgilanadiki, fuqarolik jamiyati fuqarolar fikrlarining xilma-xilligiga va manfaatlariga asoslangan holda tashkil etiladi. Davlat organlari fuqarolarning ishtiroki bilan adolatli saylovlar asosida tashkil etilmaydigan bo‘lsa, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda qonunga itoat etishini ta‘minlashga, o‘tkir ijtimoiy qarama-qarshiliklardan qochib-qutulishga imkoniyat bo‘lmaydi. Demokratik saylovlar hokimiyat masalasini kuch bilan hal etilishini inkor etadi.

Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat sharoitida saylovlar faqat demokratiyaning belgisi va ko‘rinishi bo‘lmasdan, shu bilan birga uning zaruriy sharti hamdir. BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Inson xuquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi”ning 21 –moddasidan quyidagi demokratik tamoyil o‘rin olgan: “Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o‘z mamlakati boshqaruv ishida qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hukumatning hokimiyati asosi bo‘lishi kerak” [2. – B. 34].

O'zbekistonda saylov tizimi har bir bosqichda Konstitutsiya va huquqiy asoslarda o'zgarishlarda rivojlanib bormoqda. Saylov qonunchiligining amaliyotda izchil qo'llanilishi mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning tarkibiy qismi bo'ldi. O'tmish bilan taqqoslanganda nafaqat saylov tizimi rivojlandi, balki saylovchining saylovlar to'g'risidagi qonunchilikka, nomzodlarga munosabati, siyosiy dunyoqarashi ham o'zgardi.

Zotan, o'zining tashkil etilishi va tuzilishi jihatidan hamda faoliyatida xalqning irodasiga tayangan, barcha umume'tirof etilgan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga intilgan davlat deganda tom ma'nodagi demokratik davlat tushuniladi. Bunda, demokratik davlat fuqarolarning erkinligi va hurfiqiriligiga asoslangan fuqarolik jamiyatining garovi, tayanchi va muhim ajralmas tarkibiy qismidir. Mazkur davlatning birligiga asos bo'lib, xalq suvereniteti xizmat qiladi. O'z navbatida, xalq suverenitetining amalda namoyon bo'lishini erkin saylovlar orqali tashkil etilgan davlat hokimiyati ifoda etadi.

Aholining ijtimoiy va siyosiy faolligini har tomonlama oshirish, mamlakatni yangilash va isloh etish, qonunchilik, vakillik hokimiyatini shakllantirish va takomillashtirishga oid amalga oshirilayotgan ishlarda fuqarolarning faol ishtirokiga erishish uchun zarur huquqiy me'yorlar va shart-sharoitlarni yaratish g'oyat muhim rol o'ynaydi. Shu borada qonunchiligimizning huquqiy va yuridik normalarini bosqichma-bosqich va tizimli ravishda yangilab va takomillashtirib borish - bugungi kunda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu borada mustaqil O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan va mamlakatni qisqa muddat ichida taraqqiy ettirishni ko'zda tutgan "Harakatlar strategiyasi" alohida ahamiyat kasb etmoqda. Buning amaliy tasdig'ini biz "Harakatlar strategiyasi" asosida mamlakatimiz uchun ijobiy "udum"ga aylangan kirib kelayotgan har bir yilga nom berish va ushbu yilga oid davlat dasturini qabul qilishimiz misolida ko'rishimiz mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik o'zgarishlarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan saylov tizimimiz muntazam takomillashib bormoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda hayotning o'zi, ayniqsa, oxirgi saylovda to'plangan tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, yurtimizda saylov jarayonlarini yanada demokratlashtirish masalalarini kun tartibiga qo'yimoqda. Shundan kelib chiqib saylov sohasidagi islohotlar borasida mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017 yilning 22 dekabrda O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida "Shu o'rinda siyosiy hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan saylov qonunchiligi haqida ham to'xtalib o'tmoqchiman. Bu borada qabul qilingan 6 ta qonun va bir qator qonunosti hujjatlari, afsuski, haligacha yaxlit bir hujjat shakliga keltirilmagan. Shu sababli xalqaro norma va standartlarga javob beradigan yagona Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish lozim" [3. - B.18] deya ta'kidlaganlari va buning amaliy tasdig'i sifatida juda qisqa fursat ichida, ya'ni 2019 yilning 28 fevral - 1 mart kunlarida Oliy Majlis palatalarining yalpi majlisida "Saylov kodeksi" ning qabul qilinishi jamiyatdagi islohotlar qanchalik shiddat bilan o'z samarasini berayotganligidan darak bermoqda.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, Yangi O'zbekistonda shakllangan saylov qonunchiligi saylovlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq umume'tirof etilgan xalqaro prinsiplar va normalarga to'liq mos kelmoqda hamda u demokratik huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish g'oyalarini amalga oshirish maqsadlariga mos holda takomillashib bormoqda.

IQTIBOSLAR:

1. Sh.Mirziyoyev “Parlamentimiz haqiqiy demokratik maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo`lishi kerak” Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O`zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma`ruza. 2017-yil 12-iyul. 559 b.

2. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 1948-yil 10-dekabr Inson huquqlari bo`yicha xalqaro shartnomalar.T. Adolat. 2004. 34 bet.

3. Shavkat Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi 2017-yil 22-dekabr. 18 bet.

